

2023-yil yanvar-oktabr oylari uchun  
dastlabki ma'lumot



## SAMARQAND VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi:  
(66) 235-65-80



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-yil** yanvar-oktabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **2 285,7 mln. AQSh** dollariga yetdi va **2022-yilning** yanvar-oktabr oylariga nisbatan **362,7 mln. AQSh** dollariga yoki **18,9 %** ga ko'paydi.



### TASHQI SAVDO AYLANMASI

yanvar-oktabr, mln. AQSh dollar



#### Tashqi savdo aylanmasi

2023-y. **2 285,7** +18,9 %

(2022-y. **1 923,0**)



#### Saldo

2023-y. - **1 089,4** (2022 y. - **882,9**)



#### Eksport

2023-y. **598,1** + 15,0 %

(2022-y. **520,1**)



Tovarlar: **563,5**



Xizmatlar: **34,6**



#### Import

2023-y. **1 687,6** +20,3%

(2022-y. **1 402,9**)



Tovarlar: **1 684,8**



Xizmatlar: **2,8**

**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.












TSAda eksport hajmi **598,1** mln. AQSh dollariga (**15,0** % ga ko‘paydi) va import hajmi **1 687,6** mln. AQSh dollariga (**20,3** % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida – **1 089,4** mln. AQSh dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



### SAMARQAND VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR

2023-yil yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari va ulushi, %



<p><b>Rossiya</b></p> <p><b>TSA – 522,4</b></p> <p>Eksport: 176,9 Import: 345,5</p> <p> 22,9 %</p>	<p><b>XXR</b></p> <p><b>TSA – 521,4</b></p> <p>Eksport: 51,3 Import: 470,1</p> <p> 22,8 %</p>	<p><b>Qozog‘iston</b></p> <p><b>TSA – 255,2</b></p> <p>Eksport: 98,1 Import: 157,1</p> <p> 11,2 %</p>	<p><b>Turkiya</b></p> <p><b>TSA – 162,9</b></p> <p>Eksport: 33,0 Import: 129,9</p> <p> 7,1 %</p>	<p><b>BAA</b></p> <p><b>TSA – 67,7</b></p> <p>Eksport: 16,9 Import: 50,8</p> <p> 3,0 %</p>
<p><b>Ozarbajjon</b></p> <p><b>TSA – 60,4</b></p> <p>Eksport: 13,5 Import: 46,9</p> <p> 2,6 %</p>	<p><b>Tojikiston</b></p> <p><b>TSA – 58,6</b></p> <p>Eksport: 50,5 Import: 8,1</p> <p> 2,6 %</p>	<p><b>Kipr</b></p> <p><b>TSA – 45,1</b></p> <p>Eksport: 45,1 Import: 0,0</p> <p> 2,0 %</p>	<p><b>Yaponiya</b></p> <p><b>TSA – 43,3</b></p> <p>Eksport: 0,1 Import: 43,2</p> <p> 1,9 %</p>	<p><b>Germaniya</b></p> <p><b>TSA – 40,6</b></p> <p>Eksport: 4,1 Import: 36,5</p> <p> 1,8 %</p>

Samarqand viloyati jahonning **103** ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (**22,9** %), Xitoy Xalq Respublikasida (**22,8** %), Qozog'istonda (**11,2** %), Turkiyada (**7,1** %), BAAda (**3,0** %), Ozarbayjonda (**2,6** %) va Tojikistonda (**2,6** %) qayd etilgan.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iz Respublikasi va Qozog'iston kabi qo'shni davlatlar bilan TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qozog'iston bilan **31,0** foizga oshdi.



## TASHQI SAVDO PROFITSITI BO'LGAN ASOSIY UCH DAVLAT

2023-yil yanvar-oktabr, mln. AQSh dollar



Tojikiston – 58,6



Kipr – 45,1



Qirg'iz Respublikasi – 20,7



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan uchta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Tojikiston, Kipr va Qirg'iz Respublikasi shular jumlasidandir. Qolgan **17** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda..













## SAMARQAND VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari

Davlatlar	2021-y.	2022-y.	2023-y.
 <b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>258,2</b>	<b>427,9</b>	<b>522,4</b>
<i>Eksport</i>	86,7	118,8	176,9
<i>Import</i>	171,5	309,1	345,5
 <b>Xitoy Xalq Respublikasi</b>	<b>213,4</b>	<b>293,0</b>	<b>521,4</b>
<i>Eksport</i>	46,1	35,3	51,3
<i>Import</i>	167,3	257,8	470,1
 <b>Qozog'iston</b>	<b>194,7</b>	<b>298,6</b>	<b>255,2</b>
<i>Eksport</i>	50,5	93,5	98,0
<i>Import</i>	144,2	205,1	157,1
 <b>Turkiya</b>	<b>126,5</b>	<b>148,4</b>	<b>162,9</b>
<i>Eksport</i>	34,5	57,6	33,1
<i>Import</i>	92,0	90,8	129,9
 <b>BAA</b>	<b>4,9</b>	<b>4,9</b>	<b>67,7</b>
<i>Eksport</i>	2,6	2,4	16,9
<i>Import</i>	2,3	2,5	50,8
 <b>Ozarbayjon</b>	<b>13,6</b>	<b>14,7</b>	<b>60,4</b>
<i>Eksport</i>	13,1	13,9	13,4
<i>Import</i>	0,5	0,9	46,9
 <b>Tojikiston</b>	<b>51,0</b>	<b>64,6</b>	<b>58,6</b>
<i>Eksport</i>	46,1	54,9	50,5
<i>Import</i>	4,9	9,7	8,0
 <b>Kipr</b>	<b>0,1</b>	<b>0,2</b>	<b>45,1</b>
<i>Eksport</i>	0,0	0,0	45,1
<i>Import</i>	0,1	0,2	0,0
 <b>Yaponiya</b>	<b>75,1</b>	<b>59,6</b>	<b>43,3</b>
<i>Eksport</i>	0,5	0,1	0,1
<i>Import</i>	74,7	59,5	43,2
 <b>Germaniya</b>	<b>44,5</b>	<b>47,8</b>	<b>40,6</b>
<i>Eksport</i>	2,4	2,9	4,1
<i>Import</i>	42,1	44,9	36,5




Davomi

Davlatlar	2021-y.	2022-y.	2023-y.
<b>Polsha</b>	<b>9,1</b>	<b>30,0</b>	<b>38,9</b>
 <i>Eksport</i>	3,1	6,8	1,5
<i>Import</i>	6,0	23,1	37,4
<b>Sloveniya</b>	<b>33,5</b>	<b>41,3</b>	<b>38,5</b>
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	33,5	41,3	38,5
<b>Hindiston</b>	<b>22,8</b>	<b>43,2</b>	<b>34,9</b>
 <i>Eksport</i>	0,2	0,5	3,6
<i>Import</i>	22,7	42,7	31,3
<b>Eron</b>	<b>29,4</b>	<b>36,9</b>	<b>34,3</b>
 <i>Eksport</i>	2,9	6,0	6,3
<i>Import</i>	26,6	30,8	28,0
<b>Litva</b>	<b>21,4</b>	<b>34,4</b>	<b>30,7</b>
 <i>Eksport</i>	1,0	6,0	2,9
<i>Import</i>	20,4	28,4	27,8
<b>Latviya</b>	<b>22,4</b>	<b>25,7</b>	<b>25,0</b>
 <i>Eksport</i>	0,9	1,5	1,3
<i>Import</i>	21,5	24,2	23,7
<b>Gruziya</b>	<b>19,3</b>	<b>21,5</b>	<b>21,3</b>
 <i>Eksport</i>	2,5	6,3	6,2
<i>Import</i>	16,7	15,2	15,1
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>32,7</b>	<b>38,1</b>	<b>20,7</b>
 <i>Eksport</i>	31,7	34,9	17,0
<i>Import</i>	1,0	3,2	3,7
<b>Italiya</b>	<b>14,6</b>	<b>13,4</b>	<b>18,3</b>
 <i>Eksport</i>	8,2	5,3	3,6
<i>Import</i>	6,4	8,1	14,7
<b>Niderlandiya</b>	<b>12,5</b>	<b>15,6</b>	<b>17,7</b>
 <i>Eksport</i>	3,0	1,7	0,3
<i>Import</i>	9,5	13,8	17,4



## SAMARQAND VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

2023-yil yanvar-oktabr<sup>1</sup>

	Hajm mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, %	Ulushi, %
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>2 285,7</b>	<b>118,9</b>	<b>100</b>
Samarqand shahri	1 245,0	126,7	54,5
Kattaqo'rg'on shahri	39,6	157,1	1,7
tumanlar:			
Oqdaryo	34,8	93,0	1,5
Bulung'ur	20,5	106,4	0,9
Jomboy	181,8	86,6	8,0
Ishtixon	19,6	77,5	0,9
Kattaqo'rg'on	144,2	5,8 m.	6,3
Qo'shrabot	5,5	79,9	0,2
Narpay	32,9	188,4	1,4
Payariq	15,1	119,2	0,7
Pastdarg'om	55,4	86,3	2,4
Paxtachi	11,7	65,5	0,5
Samarqand	168,7	105,0	7,4
Nurobod	22,6	135,4	1,0
Urgut	157,5	100,7	6,9
Toyloq	120,0	86,3	5,3

Eng yuqori hajm,  
mln. AQSh dollari



Samarqand sh. 1 245,0

Jomboy t 181,8

Samarqand t. 168,7

Eng quyi hajm,  
mln. AQSh dollari



Payariq t. 15,1

Paxtachi t. 11,7


Qo'shrabot t. 5,5

ViLOYAT tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri **54,5** % ulush bilan **1 245,1** mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Qo'shrabot tumani **0,2** % ulush bilan **5,5** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

<sup>1</sup> Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Samarqand viloyati, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

## SAMARQAND VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari



2023-yilning yanvar-oktabr oylarida, Samarqand viloyati tashqi savdo aylanmasining **57,9** % ulushi MDH davlatlariga to'g'ri kelib, tashqi savdo aylanmasidagi 2022-yilning mos davriga nisbatan ulushi **6,0** % ga ko'paydi.



Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida 2022-yilning mos davriga nisbatan **6,0** % ga kamaydi va jami TSAdagi ulushi **42,1** % ni tashkil etdi.



Samarqand viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023-yil yanvar-oktabr holatiga ko'ra, **961,6** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport **377,6** mln. AQSh dollariga yetgan bo'lsa, import **584,0** mln. AQSh dollari qiymatida qayd etildi.



## SAMARQAND VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

2023-yil yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari

### Rossiya

TSA – 522,4  
Eksport – 176,9  
Import – 345,5



### Qozog'iston

TSA – 255,2  
Eksport – 98,1  
Import – 157,1



### Tojikiston

TSA – 58,6  
Eksport – 50,5  
Import – 8,1



### Qirg'iz Respublikasi

TSA – 20,7  
Eksport – 17,0  
Import – 3,7



### Belarus Respublikasi

TSA – 15,2  
Eksport – 9,9  
Import – 5,3



### Turkmaniston

TSA – 10,6  
Eksport – 3,6  
Import – 7,0



### Ozərbayjon

TSA – 60,4  
Eksport – 13,5  
Import – 46,9



### Ukraina

TSA – 12,5  
Eksport – 4,2  
Import – 8,3



### Armaniston

TSA – 3,5  
Eksport – 2,0  
Import – 1,5



### Moldova


TSA – 2,5  
Eksport – 1,9  
Import – 0,6




Samarqand viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (54,3 %), Qozog'iston (26,5 %) hamda Ozarbayjon (6,3 %) davlatlari bilan qayd etildi.

## SAMARQAND VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

2023 yil yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari, ulushi, %



 Samarqand viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **817,0** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi **303,9** mln. AQSh dollari, import hajmi esa **513,1** mln. AQSh dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YeOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Belarus va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



## SAMARQAND VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Viloyatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar tomonidan **598,1** mln. AQSh dollari qiymatidagi (2022-yilning mos davriga nisbatan **115,0** % ni tashkil etdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST<sup>1</sup> BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

2023-yil yanvar-oktabr, ulushi, %



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasini (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## SAMARQAND VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

*yanvar-oktabr, yillar kesimida*

XSST tarkibi	mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, %		Umumiy hajmga nisbatan, %	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami eksport</b>	<b>520,1</b>	<b>598,1</b>	<b>123,9</b>	<b>115,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	177,8	195,8	135,8	110,1	34,2	32,7
Ichimliklar va tamaki	5,7	3,5	169,3	61,9	1,1	0,6
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	21,7	13,9	89,9	64,1	4,2	2,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	5,1	12,9	7,6 m.	2,5 m.	1,0	2,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	12,2	6,3	141,8 m.	51,2	2,3	1,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	19,4	4,4	81,7	22,7	3,7	0,7
Sanoat tovarlari	178,8	151,6	131,3	84,8	34,4	25,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	38,6	129,6	87,0	3,4 m.	7,4	21,7
Turli xil tayyor buyumlar	41,2	45,6	123,1	110,8	7,9	7,6
Xizmatlar	19,6	34,6	85,4	176,5	3,8	5,8

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **94,2 %** ni tashkil etib, ulardan eng yuqorilari oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**32,7 %**), sanoat tovarlari (**25,3 %**) va mashina va transport asbob-uskunalari (**21,7 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



## SAMARQAND VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI, 2023-yil yanvar-oktabr

XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2022-yilning mos davriga nisbatan, %
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	162,5	121,2
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	21,0	81,3
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	5,8	55,3
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	3,5	61,7
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	8,9	57,2
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	2,4	56,6
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft, neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	12,9	4,1 m.
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simliklar moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	6,3	51,2
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	1,5	115,4
Boshqa joyda tavsiflanmagan kimyoviy vositalar va mahsulotlar	0,7	15,9 m.


XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2022-yilning mos davriga nisbatan, %
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	66,9	67,3
Cho'yan va po'lat	47,3	86,8
Rangli metal	23,3	165,8
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	11,2	139,7
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalar</b>		
Avtomobillar	76,0	2,4 m.
Elektr mashinalari, aparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari, boshqa joyda tasniflanmagan	5,2	160,3
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar, asbob - uskunalar va ularning ehtiyot qismlari, boshqa joyda tasniflanmagan	2,6	143,6
Aniq sohalar uchun maxsus bo'lgan mashinalar va uskunalar	0,5	26,0
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	39,1	115,1
Poyafzal	4,6	69,2
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	0,9	2,1 m.
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	0,5	8,3 m.
<b>Xizmatlar</b>		
Transport xizmatlari	12,9	7 m.
Turizm xizmatlari	14,5	2,8 m.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023-yilning yanvar-oktabr oylarida MDH mamlakatlariga **377,6** mln. AQSh dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **63,1 %** ini tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

yanvar-oktabr, mln. AQSh  
dollari



2023-yilning yanvar-oktabr oylari yakunida eksport bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining **29,6 %**) va Qo'zog'iston (**16,4 %**) davlatlari yetakchilik qildi. Yuqoridagi yetti yirik davlatlarning jami eksportdagi ulushi **78,9 %** ni tashkil etdi.



### VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI, 2023-yil yanvar-oktabr, %






## SAMARQAND VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI, *yanvar-oktabr, yillar kesimida*

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, %		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Rossiya Federatsiyasi	118,8	176,9	137,1	148,9	1	1
Qozog'iston	93,5	98,0	185,3	104,8	2	2
Tojikiston	54,9	50,5	119,0	92,0	4	3
Xitoy Xalq Respublikasi	35,3	51,3	76,5	145,5	5	4
Kipr	0,0	45,1	-	-	62	5
Turkiya	57,6	33,1	166,8	57,4	3	6
Qirg'iz Respublikasi	34,9	17,0	110,1	48,7	6	7
BAA	2,4	16,9	90,8	7,1 m.	21	8
Afg'oniston	25,7	13,6	164,1	52,8	7	9
Ozarbayjon	13,9	13,4	105,8	96,9	8	10
Belarus Respublikasi	11,7	9,9	185,6	85,2	9	11
Eron	6,0	6,3	2,1 m.	104,0	13	12
Gruziya	6,3	6,2	2,5 m.	98,6	11	13
Ukraina	2,9	4,2	29,6	144,6	19	14
Germaniya	2,9	4,1	121,3	139,8	20	15
AQSh	3,3	3,9	123,0	119,6	18	16
Turkmaniston	3,8	3,7	162,5	95,8	17	17
Hindiston	0,5	3,6	2,8 m.	6,9 m.	35	18
Italiya	5,3	3,6	65,3	66,7	15	19
Litva	6,0	2,9	6,2 m.	48,8	12	20





## SAMARQAND VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI 2023-yil yanvar-oktabr<sup>1</sup>

	Hajm mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, %	Ulushi, %
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>598,1</b>	<b>115,0</b>	<b>100</b>
Samarqand shahri	271,9	136,7	45,5
Kattaqo'rg'on shahri	24,5	160,2	4,1
tumanlar:			
Oqdaryo	16,9	76,5	2,8
Bulung'ur	13,0	95,2	2,2
Jomboy	71,4	138,3	11,9
Ishtixon	14,3	82,9	2,4
Kattaqo'rg'on	6,1	47,3	1,0
Qo'shrabot	1,9	66,3	0,3
Narpay	18,4	144,4	3,1
Payariq	9,3	103,3	1,5
Pastdarg'om	12,8	83,8	2,1
Paxtachi	9,5	71,6	1,6
Samarqand	58,2	102,8	9,7
Nurobod	3,5	7,9 m.	0,6
Urgut	40,3	84,7	6,7
Toyloq	15,6	62,9	2,6

Eng yuqori hajm,  
mln. AQSh dollari



Samarqand sh. 271,9

Jomboy 71,4

Samarqand 58,2

Eng quyi hajm,  
mln. AQSh dollari



Kattaqo'rg'on 6,1

Nurobod 3,5

Qo'shrabot 1,9

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri **45,5 %** ulush bilan **271,9** mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Qo'shrabot tumani **0,3 %** ulush bilan **1,9** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

<sup>1</sup> Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Samarqand viloyati, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI











Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023-yil yanvar-oktabr oylarida **132,4** mln. AQSh dollarlik **143,6** ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatgich 2022-yilning mos davriga nisbatan **6,8** mln. AQSh dollariga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi (**30,3** %), XXR (**16,2** %), Turkiya (**9,3** %), hamda Qozog'iston (**7,5** %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.





## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

2023-yil yanvar-oktabr, qiymatga nisbatan o'sish sur'atlari

<p><b>Uzum yangi uzilgan</b></p> <p><b>40,1 mln. AQSh dollari</b></p> <p>35,1 ming tonna 88,2 % ↓</p> 	<p><b>Meva va rezavorlar</b></p> <p><b>53,8 mln. AQSh dollari</b></p> <p>50,9 ming tonna 157,4 % ↑</p> 	<p><b>Qalampir</b></p> <p><b>1,3 mln. AQSh dollari</b></p> <p>1,0 ming tonna 98,3 % ↓</p> 	<p><b>Sabzavotlar</b></p> <p><b>33,7 mln. AQSh dollari</b></p> <p>51,3 ming tonna 91,3 % ↓</p> 
<p><b>Uzum quritilgan</b></p> <p><b>27,4 mln. AQSh dollari</b></p> <p>22,8 ming tonna 87,9 % ↓</p> 	<p><b>Kartoshka</b></p> <p><b>0,0 mln. AQSh dollari</b></p> <p>0,0 ming tonna 0,0 % ↓</p> 	<p><b>Yeryong'oq</b></p> <p><b>2,4 mln. AQSh dollari</b></p> <p>1,8 ming tonna 60,3 % ↓</p> 	<p><b>Qovun va tarvuz</b></p> <p><b>1,2 mln. AQSh dollari</b></p> <p>3,5 ming tonna 54,6 % ↓</p> 



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI, 2023-yil yanvar-oktabr

Davlatlar	Ming tonna	Mln. AQSh dollari	Ulushi, %
 Rossiya Federatsiyasi	39,1	40,1	30,3
 Xitoy Xalq Respublikasi	24,7	21,5	16,2
 Turkiya	7,8	12,3	9,3
 Qozog'iston	28,9	10,0	7,5
 Belarus Respublikasi	8,9	7,6	5,7
 Ozarbayjon	3,6	5,9	4,4
 Eron	3,8	5,1	3,9
 Gruziya	6,0	4,0	3,0
 Ukraina	5,1	3,9	2,9
 BAA	2,2	3,2	2,4
 Iroq	1,8	2,6	2,0
 Litva	1,2	2,5	1,9
 AQSH	0,4	2,0	1,5
 Pokiston	1,4	1,7	1,3
 Germaniya	0,5	1,6	1,2
 Boshqa davlatlar	<b>8,3</b>	<b>8,5</b>	<b>6,4</b>

<sup>1</sup> qiymat ifodasidan



2023-yil yanvar-oktabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Rossiya Federatsiyasiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **40,1** %), bu Xitoy Xalq Respublikasi eksport hajmidan **18,6** % ga ko'p.



## TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O'zbekiston uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2023-yil yanvar-oktabr oylari yakuni bo'yicha **78 mln.** AQSh dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **13,0 %** ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'ati **57,6 %** ni tashqil qildi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor tirikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**49,7 %**), Gilam mahsulotlari (**15,7 %**) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan **105** turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning **27** ta davlatiga eksport qilindi.

### TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari

		2022-yil	2023-yil
<b>Jami</b>		<b>135,6</b>	<b>78,0</b>
	Tayyor to'qimachilik mahsulotlari	33,8	38,8
	Gilamlar	18,9	12,3
	Ipak va ipak mahsulotlari	15,3	13,0
	Naqshli mato	7,0	5,6
	Paxtadan gazlamalar	4,8	2,2
	Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	5,9	5,9

## DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI, yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari



	2022-yil	2023-yil	Ulushi, %
 Rossiya Federatsiyasi	35,6	41,0	52,6
 Tojikiston	10,9	9,8	12,6
 Qirg‘iz Respublikasi	14,5	5,1	6,5
 Ozarbayjon	4,1	3,8	4,8
 Italiya	5,3	3,3	4,2
 Xitoy Xalq Respublikasi	17,4	2,8	3,5
 Germaniya	1,2	2,0	2,6
 Afg‘oniston	3,0	1,8	2,3
 Qozog‘iston	2,3	1,7	2,2
 Vetnam	0,0	1,3	1,7
 Moldava Respublikasi	0,9	0,9	1,1
 Turkmaniston	0,5	0,8	1,0
 Turkiya	31,6	0,8	1,0
 Izroil	0,7	0,7	0,9
 Boshqa davlatlar	<b>7,7</b>	<b>2,3</b>	<b>2,9</b>



Viloyatning to‘qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati va hamkor davlatlardagi to‘qimachilik bozoridagi ulushi oshib bormoqda.


To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Rossiya Federatsiyasi (**41,0** mln. AQSh dollari – **52,6** %) va Tojikiston (**9,8** mln. AQSh dollari – **12,6** %) davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Viloyatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



## XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

2023-yil yanvar-oktabr, ulushi, %



Xizmatlar eksporti hajmi **34,6** mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 5,8 % ini tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 76,5 % ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlar (**37,4** %), safarlar (turizm) xizmatlar (**41,8** %), moliyaviy xizmatlar (**13,0** %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (**5,6** %) va qurilish xizmatlar (**2,1** %) hissasiga to'g'ri kelgan. Shu bilan birga boshqa ish bilan bo'g'liq xizmatlar (**0,01** %) hissasiga to'g'ri keldi.



## SAMARQAND VILOYATINING IMPORT




2023-yilning yanvar-oktabr oylarida import hajmi **1 687,6** mln. AQSh dollarini va 2022-yilning mos davriga nisbatan **120,3** % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng yuqori ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (**33,6** %), sanoat tovarlari (**23,9** %), hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (**24,7** %) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

2023-yil yanvar-oktabr, ulushi, %



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **283,9** mln. AQSh dollariga ko'paydi va **1 684,8** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar **2,8** mln. AQSh dollariga yetdi.



## SAMARQAND VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI, *yanvar-oktabr, yillar kesimida*

XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, %		Umumiy hajmga nisbatan. %	
	2022-y.	2023-y.	2022-y.	2023-y.	2022-y.	2023-y.
<b>Jami import</b>	<b>1 402,9</b>	<b>1 687,6</b>	<b>127,7</b>	<b>120,3</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>

*shu jumladan:*

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	140,9	141,0	127,2	100,0	10,0	8,4
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,1	31,6	50,5	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	68,0	47,1	158,8	69,3	4,8	2,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	28,2	37,0	112,8	131,0	2,0	2,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	21,0	30,9	90,1	147,0	1,5	1,8
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	354,7	416,1	113,0	117,3	25,3	24,7
Sanoat tovarlari	384,4	402,5	172,2	104,7	27,4	23,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	369,3	567,2	110,9	153,6	26,3	33,6
Turli xil tayyor buyumlar	34,0	42,8	137,8	126,0	2,4	2,5
Xizmatlar	2,1	2,8	161,7	132,7	0,2	0,2





## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI

2023-yil yanvar-oktabr


XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2022-yilga nisbatan, %
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	53,3	160,5
Hayvonlar uchun ozuqalar	44,1	126,8
Meva va sabzavotlar	22,3	142,0
Tirik hayvonlar uchun ozuqalar 03 bo'limdakilarni qo'shgan holda	9,3	100,2
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	0,1	50,5
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	15,3	45,9
Probka va yog'och-taxtalar	13,2	78,2
Boshqa joyda tasniflanmagan hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo mahsulotlari	5,0	78,2
Qog'oz massasi va makulatura	5,4	2,9 m.
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	33,2	128,0
Ko'mir, koks va briketlar	3,4	153,4
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moyi va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	30,0	147,4
Hayvonlar va o'simliklar moyi va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar; boshqa joyda tasniflanmagan hayvonlar va o'simlik yog'lari va moyidan olingan texnik aralashmalar va preparatlar	0,9	134,3
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	252,0	106,0
Birlamchi shakldagi plastmassalar	3,0	87,5
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy vositalar	26,7	174,5

XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2022-yilga nisbatan, %
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	218,8	91,6
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	68,5	129,5
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	33,5	130,2
Boshqa joyda tasniflanmagan metallardan tayyorlangan buyumlar	24,8	113,6
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalar</b>		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	165,5	130,1
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	110,2	2 m.
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	121,5	82,3
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Maxsus ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	17,3	189,2
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	13,4	102,9
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalar uchun armatura va mahkamlash moslamalari	6,1	105,8
Poyabzal	2,2	164,0
<b>Xizmatlar</b>		
Transport xizmati	2,7	133,6

2023-yil yanvar-oktabr oylarida MDH mamlakatlaridan import ulushi **34,6 %** ni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **7,2 %** ga kamaydi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

yanvar-oktabr, mln. AQSh dollari



2023-yil yanvar-oktabr oylarida Samarqand viloyati **83** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, BAA, Ozarbayjon va Polsha) jami importning **73,7 %** ulushini tashkil etdi.



### VILOTAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI, 2023-yil yanvar-oktabr, %






## SAMARQAND VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI

*yanvar-oktabr, yillar kesimida*

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, %		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Xitoy Xalq Respublikasi	257,8	470,1	154,1	182,4	2	1
Rossiya Federatsiyasi	309,1	345,5	180,3	111,8	1	2
Qozog'iston	205,1	157,1	142,2	76,6	3	3
Turkiya	90,8	129,9	98,7	143,0	4	4
BAA	2,5	50,8	107,2	20,2 m.	36	5
Ozarbayjon	0,9	46,9	178,3	53,2 m.	48	6
Yaponiya	59,5	43,2	79,7	72,5	5	7
Sloveniya	41,3	38,5	123,2	93,1	8	8
Polsha	23,1	37,4	3,9 m.	161,6	13	9
Germaniya	44,9	36,5	106,5	81,3	6	10
Hindiston	42,7	31,3	188,2	73,3	7	11
Eron	30,8	28,0	116,1	90,9	9	12
Litva	28,4	27,8	138,9	97,8	10	13
Latviya	24,2	23,7	112,6	98,0	12	14
Niderlandiya	13,8	17,4	145,5	125,9	16	15
Gruziya	15,2	15,1	90,9	99,2	15	16
Italiya	8,1	14,7	125,6	181,9	26	17
Bangladesh	12,4	14,5	105,9	117,6	18	18
Koreya Respublikasi	8,3	12,5	76,9	150,4	24	19
Avstriya	5,9	9,7	50,6	163,9	28	20



## SAMARQAND VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI 2023-yil yanvar-oktabr

	Hajm mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, %	Ulushi, %
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>1 687,6</b>	<b>120,3</b>	<b>100</b>
Samarqand shahri	973,0	124,1	57,7
Kattaqo'rg'on shahri	15,1	152,3	0,9
tumanlar:			
Oqdaryo	17,9	116,7	1,1
Bulung'ur	7,5	133,5	0,4
Jomboy	110,4	69,7	6,5
Ishtixon	5,3	65,7	0,3
Kattaqo'rg'on	138,2	11,3 m.	8,2
Qo'shrabot	3,7	89,0	0,2
Narpay	14,5	3,1 m.	0,9
Payariq	5,9	157,7	0,3
Pastdarg'om	42,6	87,0	2,5
Paxtachi	2,2	47,8	0,1
Samarqand	110,5	106,1	6,5
Nurobod	19,0	117,4	1,1
Urgut	117,2	107,7	6,9
Toyloq	104,4	91,4	6,2

Eng yuqori hajm,  
mln. AQSh dollari



Samarqand sh. 973,0

Kattaqo'rg'on t. 138,2

Samarqand t. 110,5

Eng quyi hajm,  
mln. AQSh dollari



Ishtixon t. 5,3

Qo'shrabot t. 3,7


Paxtachi 2,2

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri **57,7 %** ulush bilan **973,0** mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Paxtachi tumani **0,1 %** ulush bilan **2,2** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



## XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2023-yil yanvar-oktabr, hajmi mln. AQSh dollari, ulushi, %)



2023-yilning yanvar-oktabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **2,8** mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining **0,2** %ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **32,7** %ga ko'paydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (**96,4** %), boshqa safarlar (turizm) xizmatlari (**2,7** %), ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, boshqa joyda tasniflanmagan (**0,7** %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (**0,2** %) ga tegishli bo'ldi.



Xizmatlar importida eng yuqori hajm transport xizmatlari **2,7** mln. AQSh dollarini yoki 96,4 % ini tashkil etgan bo'lsa, qolgan 3,6 % ini boshqa xizmat turlari tashkil etdi.



## MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI




Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023-yil yanvar-oktabr oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari hajmi **567,2** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2022-yilning shu davriga nisbatan **53,6** % ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **33,6** % ga yetdi.



### MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR 2023-yil yanvar-oktabr




2023-yil yanvar-oktabr oylarida mashina va transport asbob-uskunalari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **197,9** mln. AQSh dollariga ko'paydi. Ushbu tovarlarni Samarqand viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR — **287,8** mln. AQSh dollari (**50,7** %), Turkiya – **56,2** mln. AQSh dollari (**9,9** %) va Ozarbajjon – **44,9** mln. AQSh dollari (**7,9** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2023-yil yanvar-oktabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari hajmi **402,5** mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **104,7 %** ni tashkil qildi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **23,9 %** ga yetdi.



### SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

2023-yil yanvar-oktabr, ulushi, %

163,4 mln. AQSh doll.  
ulushi – 40,6 %



Rossiya  
Federasiyasi

104,7 mln. AQSh  
doll. ulushi – 26,0 %



XXR

48,4 mln. AQSh doll.  
ulushi – 12,0 %



Qozog'iston

38,1 mln. AQSh  
doll. ulushi – 9,5 %



Turkiya

14,1 mln. AQSh doll.  
ulushi – 3,5 %



Bangladesh



Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan yoki po'lat (**218,8** mln. AQSh dollari), boshqa joyda tasniflanmagan to'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (**68,5** mln. AQSh dollari), Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan (**33,5** mln. AQSh dollari) Boshqa joyda tasniflanmagan metallardan tayyorlangan buyumlar (**24,8** mln. AQSh dollari), va boshqalardan tashkil topgan.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo'limi**  
Тел. 66-235-65-80